SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZAYNIYEVA NASIBA BAXTIYAROVNA

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378:811.111.37.091.3:004

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences

Zayniyeva Nasiba Baxtiyarovna
Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirish 3

Зайниева Насиба Бахтияровна
Формирование информационной компетентности будущих преподавателей иностранного языка на основе личностно-ориентированного подхода 29

Zayniyeva Nasiba Bakhtiyorovna
Developing the informational competence of future foreign language teachers based on a student-centered approach 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 63

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZAYNIYEVA NASIBA BAXTIYAROVNA

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK CHET TILI O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped7042 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rustamova Adash Eshankulovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Abdullayeva Lola Taxirovna** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
	Toshboyeva Barnoxon Odiljonovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “17” oktabr soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4223-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____”. oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “___” oktabr dagi № 6 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

S.I. Anorqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish, raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini individuallashtirish masalalari pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborotni izlash, tanqidiy baholash, qayta ishlash va ta’lim jarayonida samarali qo‘llash kompetensiyalarini individual ehtiyoj va tayyorgarlik darajasiga mos ravishda rivojlantirishning mexanizmlari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi ularning kasbiy tayyorgarligi samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy didaktik modeli, metodik ta’minoti va diagnostik-baholash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo ilmiy amaliyotida bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish, raqamli pedagogika, media va axborot savodxonligi, sun’iy intellekt vositalari, raqamli ta’lim platformalari, adaptiv o‘qitish texnologiyalari hamda DigCompEdu, UNESCO va AASL kompetensiya modellari asosida rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda bo‘lajak o‘qituvchilarning axborotni izlash, tanqidiy tahlil qilish, baholash, qayta ishlash, raqamli kontent yaratish, axborot xavfsizligini ta’minlash va shaxsiy ta’lim ehtiyojlariga mos raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida belgilanmoqda. Kelgusida generativ sun’iy intellekt vositalari asosida shaxsga mos axborot kompetensiyasini rivojlantirish modellari, o‘quv analitikasi yordamida individual kompetensiya trayektoriyalarini loyihalash, immersiv ta’lim muhitlarida axborot kompetensiyasini shakllantirish hamda chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashda axborot kompetensiyasini diagnostik baholash tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

O‘zbekistonda bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, sun’iy intellekt va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi” [1] . Bu borada bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining axborot kompetensiyasini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida shakllantirish, raqamli va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish, axborot kompetensiyasini baholashning diagnostik tizimini takomillashtirish hamda ularni pedagogik amaliyotga integratsiyalashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb sanaladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tilni o‘qitish masalalari G.X. Bakiyeva, L.T. Axmedova, J.J. Jalolov, T.K. Sattarov, I.M. Tuxtasinov, M. Djusupov, D.R. Djumanova, D.U. Xoshimova, D.A. Tadjibayeva F.Sh. Alimov, X.A. Mamatkulov, U.U. Jumanazarov, K.Sh. Muradkasimova, A.E. Rustamova, B.R. Samatova, X.I. Urazbayev, X.A. Axmadjanov [2] [2] kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.

---

[2]Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва.: МГЛУ, 2012.– 120 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Фан ва технология, 2013– 200с.; Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 430 b; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф.дис…д-ра пед.наук. – Ташкент, 2000. 32 с.; Paluanova X.D. Ingliz, o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ekologik terminlarning derivasion-semantik prinsiplari: Avtoref. diss. ... filol.fan. dok. – Toshkent, 2016. – 28 b.; Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Электрон ресурс: http://bilingual-online.net/index.php?option= com_content&view=article&id=1967%3Abilingual-polilingual-russian-world (мурожаат санаси: 04.03.2019); Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. .... докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. – 266 с.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дис. … докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с.; D.A.Tadjibayeva. Kichik maktab yoshidagi bolalarning chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish. Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref.- Toshkent, 2018; Mamatkulov X.A. Pedagoglarda xorijiy tillar bo‘yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta’minotini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref.– Toshkent, 2017. Muradkasimova K. Sh. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar ko‘nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. Samatova B.R. Ingliz tilini o‘qitishda nofilologik yo‘nalish talabalarining motivatsiyasi. Diss. … ped.fan.falsafa dok. – Toshkent, 2020; Urazbayev H.I. Bo’lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda til portfoliosidan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref.– Toshkent, 2021; Axmadjanov X.A. Nofilologik ta’lim yo‘nalishlaridagi talabalarning ingliz tilidagi yozma nutqini baholash metodlarini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref.– Toshkent, 2022;

Respublikamiz olimlaridan aynan axborot kompetentligi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv xususida ilmiy tadqiqot olib borgan olimlardan A.Xamidov, I.Boboyorov, S.Nishonova, A.Yo‘ldoshev, K.To‘xtasinov, B.Sharipov, M.Normurodova, N.Sobirova, Z.Karimova, D.Mamajonovalarning[3] ishlari nazariy va ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

MDH davlatlari olimlaridan A.V.Xutorskoy, I.A.Zimnyaya, L.I.Novikova, N.L.Ivanova, N.V.Kolomoytseva, S.S.Kunanbayeva, V.I.Soldatkin, V.A.Lopatkin, V.D.Shadrikov, Yu.G.Tatur, G.K.Selevko, V.A.Dalingerlar[4] ushbu tadqiqot doirasida faoliyat olib borganlar.

Xorij olimlaridan C.S.Bruce, A.Lloyd, L.Limberg, P.Blumberg, M.Hepworth, E.K.Owusu-Ansah, P.McKinney, S.Andretta, O.Sundin, W.Badke, L.G.O‘Connor, K.Tuominen[5] kabi olimlar ilmiy-tadqiqot olib borganlar.

Respublikamizda chet tilini o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq bir qator izlanishlar mavjud, ammo OTTlarda chet tilini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va axborot kompetensiyasini uzviylikda rivojlantirishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

---

[3]Xamidov A. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish asosida o‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish. Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. – Toshkent, 2013; Boboyorov I. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari axborot kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. doktori diss. – Toshkent, 2018; Nishonova S. Pedagogik jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss.- Toshkent, 2010; Yo‘ldoshev A. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida mustaqil ta’limni tashkil etish. Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss.- Toshkent, 2014.; To‘xtasinov K. Zamonaviy darsning pedagogik asoslarini takomillashtirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss.- Toshkent, 2017; Sharipov B. Axborot pedagogikasi nazariyasi va metodik asoslari: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. Toshkent, 2016; Normurodova M. (Raqamli ta’lim sharoitida axborot kompetensiyasini shakllantirish: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. - Qarshi, 2020; Sobirova N. O‘qituvchilarning axborot savodxonligini rivojlantirish metodikasi: Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok.(PhD) diss. - Termiz, 2019; Karimova Z. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida pedagogning o‘rni: Ped.fan. nomzodi diss.– Andijon, 2018. – Mamajonova D. Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlar: Ped. fan. nomzodi diss. – Farg‘ona, 2021.

[4]Хуторской А. В. Личностно-ориентированные технологии обучения: Дисс. док. пед. наук. – Москва, 1999. Зимняя И. А. Педагогическая психология и личностно-ориентированный подход: Дисс. док. пед. наук. – Москва, 2003. Новикова Л. И. Формирование информационной компетентности учащихся в процессе обучения: Дисс. док. пед. наук. – Москва, 2009. Иванова Н. Л. Компетентностный подход в высшем образовании: Дисс. док. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2011. Коломойцева Н. В. Формирование информационной компетентности студентов педагогического вуза: Дисс. канд. пед. наук. – Москва, 2015. Куанышбаева С. С. Теоретико-методологические основы обучения иностранным языкам: Дисс. док.пед. наук. – Алматы, 2005. Солдаткин В. И. Электронное обучение и виртуальная образовательная среда: Дисс. док. пед. наук. – Москва, 2012. Лопаткин В. А. Теоретические основы формирования информационной культуры: Дисс. док.пед. наук. – Москва, 2013. Шадриков В. Д. Компетентностный подход: теория и практика: Дисс. док. пед. наук. – Москва, 2004. Татур Ю.Г. Модель качества подготовки специалистов: Дисс. пед. наук.– Москва, 2000. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии: Дисс. док. пед. наук. – Москва, 2006. Далингер В. А. Формирование информационной компетентности учащихся средней школы: Дисс. канд. пед. наук. – Томск, 2007.

[5]Bruce C. S. The Seven Faces of Information Literacy. (PhD thesis). Queensland University of Technology, Australia., 1997. Lloyd A. Information literacy: the meta-competency of the knowledge economy? (PhD thesis). Charles Sturt University, Australia, 2003. Limberg L. Information seeking and learning. (PhD thesis). University of Gothenburg, Sweden, 1998. Blumberg P. Developing learner-centered teaching. (PhD thesis). Temple University, USA, 1998. Hepworth M. Approaches to information literacy instruction. (PhD thesis). Loughborough University, UK, 2000. Owusu-Ansah E. K. Information literacy and higher education. (PhD thesis). Kent State University, USA, 2004. McKinney P. Information literacy in higher education. (PhD thesis). University of Sheffield, UK, 2006. Andretta S. Information literacy: A practitioner’s guide. (Doctoral thesis). London Metropolitan University, UK, 2005. Sundin O. Negotiations on information seeking expertise. (PhD thesis). University of Gothenburg, Sweden, 2008. Badke W. Information literacy instruction: Theory and practice. (Doctoral thesis). Trinity Western University, Canada, 2012. O'Connor L. G. Information literacy in the college curriculum. (PhD thesis). University of Illinois at Urbana-Champaign, USA, 2009. Tuominen K. User-centered information literacy instruction. (PhD thesis). University of Tampere, Finland, 1997.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy ishlari rejalariga muvofiq "Filologik oliy ta'lim tashkilotlarida chet tilini integrallashuv orqali o'qitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim tashkilotlarining 1-kurs filologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining axborot kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish, uning axborot kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash;

filologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining axborot kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish;

axborot kompetensiyasining mazmuni, tuzilishi va tarkibiy qismlarini aniqlash hamda ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning samarali yo'llarini belgilash;

AASL, SCONUL, CRAAP kabi xalqaro axborot savodxonligi modellari va yondashuvlarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va amaliyotda sinovdan o'tkazish;

axborot kompetensiyasini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan o'qitish usullari, pedagogik shart-sharoitlar va ta'lim texnologiyalarini tizimli tahlil qilish;

olingan ilmiy va amaliy natijalar samaradorligini tajribaviy-tadqiqot orqali tekshirish, tahlil qilish va asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida axborot kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida axborot kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha o'rgatishning mazmuni, usullari va metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

axborot kompetensiyasini shakllantiruvchi diagnostik–adaptiv–rivojlantiruvchi–transformativ to'rt komponentli didaktik tizim ishlab chiqilib, uning diagnostik komponentida axborotni izlash, baholash va foydalanish ko'nikmalarini *shakllanganlik darajasi bo'yicha* ko'p darajali integral tarzda aniqlash mezonlari asoslangan;

axborotni izlash, baholash, qayta ishlash va raqamli kontent yaratish jarayonlarini yaxlit bir butunlikka birlashtiruvchi *kognitiv neyrofiziologik jarayonlar nazariyasiga tayanuvchi* bir-birini faollashtiruvchi uzluksiz neyron tarmoq sifatida ishlashini aks ettiruvchi sinaptik-integrativ bog'liqlikka asoslangan mazmuniy-strukturaviy model ishlab chiqilgan;

axborot savodxonligi va media kompetentligini baholashning kognitiv, operatsion-faoliyatli, motivatsion va refleksiv mezon-indikatorlar tizimi barcha komponentlarni yaxlit va uzviy tarzda qamrab oluvchi *shaxsning bilim, ko'nikma va munosabatlarini bir butun tizim sifatida baholashga yo'naltirilgan* kompetensiyaviy-holistik yondashuv asosida takomillashtirilgan;

axborot savodxonligi va media kompetentligining shakllanishida bilim → amaliyot → motivatsiya → refleksiv takomillashtirish ketma-ketligi kompetensiya rivojlanishining *barcha bosqichlarida takrorlanuvchi va o'zgarmas tuzilishga ega bo'lgan* universal-invariant diagnostik qonuniyati sifatida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak chet tili o'qituvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish" elektron dasturi ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan DGU 56893-son guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan;

tadqiqot natijalari asosida "English for Students" nomli darsligi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i asosida nashr etilgan;

tadqiqot natijasida talabalarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda axborot kompetensiyasini shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqilgan;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida axborot kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dars ishlanmalari, topshiriqlar, interaktiv metodlar va loyihaviy faoliyat namunalarini o'z ichiga olgan o'quv-metodik darslik yaratilib, u talabalarning mustaqil ta'lim strategiyalari, metakognitiv ko'nikmalari va axborot resurslaridan samarali foydalanishini rivojlantirishga xizmat qilgan;

talabalarning axborot kompetensiyasini shakllantirish natijalarini kompleks baholashga mo'ljallangan, axborotni izlash, tanqidiy tahlil qilish va kreativ axborot mahsulotini yaratish ko'rsatkichlariga asoslangan yangi baholash mezonlari tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari takomillashtirilgani, AASL, SCONUL va CRAAP xalqaro modellari asosida moslashtirilgan konseptual yondashuv hamda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan o'quv-metodik ta'minot, shaxsga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar va axborot kompetensiyasini baholash vositalarini ta'lim jarayoniga joriy etish orqali bo'lajak chet tili o'qituvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasi, mustaqil ta'lim ko'nikmalari hamda kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim tashkilotlarida chet tilini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida axborot kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

axborot kompetensiyasini shakllantiruvchi diagnostik–adaptiv–rivojlantiruvchi–transformativ to‘rt komponentli didaktik tizim ishlab chiqilib, uning diagnostik komponentida axborotni izlash, baholash va foydalanish ko‘nikmalarini shakllanganlik darajasi bo‘yicha ko‘p darajali integral tarzda aniqlash mezonlari asoslanganligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-son “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyihada ham qo‘llanilib, amaliy natijalar bilan o‘z tasdig‘ini topgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2025-yil 5-noyabrdagi 04/11-26904-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur ishda ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy xorijiy til ta’limi metodikasini boyitishga, kompetentsiyaviy yondashuvdan samarali foydalanish tajribasini kengaytirishga xizmat qilgan;

axborotni izlash, baholash, qayta ishlash va raqamli kontent yaratish jarayonlarini yaxlit bir butunlikka birlashtiruvchi kognitiv neyrofiziologik jarayonlar nazariyasiga tayanuvchi bir-birini faollashtiruvchi uzluksiz neyron tarmoq sifatida ishlashini aks ettiruvchi sinaptik-integrativ bog‘liqlikka asoslangan mazmuniy-strukturaviy model ishlab chiqilganligi haqidagi ilmiy yangiliklar va amaliy tavsiyalar O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan Erasmus+ dasturining Project 598340-EPP-1-2018-1-ESEPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) grant loyihasida ham qo‘llanilib, amaliy natijalar bilan o‘z tasdig‘ini topgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2025-yil 11-dekabrdagi 04/11-29628-son ma’lumotnomasi). Natijada, xorijiy til ta’limi metodikasini boyitishga, axborot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

axborot savodxonligi va media kompetentligini baholashning kognitiv, operatsion-faoliyatli, motivatsion va refleksiv mezon-indikatorlar tizimi barcha komponentlarni yaxlit va uzviy tarzda qamrab oluvchi shaxsning bilim, ko‘nikma va munosabatlarini bir butun tizim sifatida baholashga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy-holistik yondashuv asosida takomillashtirilganligiga oid takliflardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 “Reinforcing English Language Competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 5-iyundagi 04/2766-son ma’lumotnomasi). Natijada, axborot kompetensiyasining ahamiyati va uning chet tillardagi ahamiyati keng ochib berilgan;

axborot savodxonligi va media kompetentligining shakllanishida bilim → amaliyot → motivatsiya → refleksiv takomillashtirish ketma-ketligi kompetensiya rivojlanishining barcha bosqichlarida takrorlanuvchi va o‘zgarmas tuzilishga ega bo‘lgan universal-invariant diagnostik qonuniyati sifatida asoslanganligiga oid ma’lumotlardan Samarqand radiosining “Kun mavzusi” eshittirishi va “Assalom Samarqand” tonggi dasturi ssenariylari uchun foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining, 2024-yil 3-maydagi 01-07/94 va 01-07/93-son ma’lumotnomalari). Natijada, radiotinglovchilar va teletomoshabinlarga chet tilni

sifatli o‘qitish va o‘rgatishning ahamiyati, bunda axborot kompetensiyasining tutgan o‘rni xususida ma’lumot berib, dasturlarni mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 6 ta, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta darslik, 1 ta dasturiy patent, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tasarrufidagi ilmiy jurnallarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi xorijiy jurnalda, 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti, hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o‘z aksini topgan.

XXI asrda global raqobatning kuchayishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hayotimizga jadal kirib kelishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayon, ayniqsa, til o‘rganuvchilarning lisoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, metodik yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Bugungi ta’lim jarayonida inson omiliga, uning ehtiyojlari, kompetensiyalari va shaxsiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv deb nomlanadi”[6]. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi “har bir talabaning individualligini hisobga olgan holda, ularni mustaqil fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga va o‘z bilimlarini faol qo‘llashga o‘rgatishdan iboratdir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv pedagogik fikrning taraqqiyotida inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. An’anaviy ta’lim modelida talaba passiv bilim oluvchi bo‘lsa, zamonaviy yondashuvda u faol ishtirokchi, tashabbuskor, hamda o‘z o‘qishining subyekti sifatida qaraladi”[7]. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning samarali amalga oshirilishi uchun u nafaqat nazariy, balki mustahkam pedagogik va metodik asoslarga ham tayanishi zarur. Bu yondashuvda talaba o‘rganish jarayonining markazida turadi[8]. O‘qituvchi esa yo‘lboshchi, yordamchi, motivator sifatida faoliyat yuritadi. Shaxsga yo‘naltirilgan

[6]A.Hamidov. (2013). Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish asosida o‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish. (Ped. fan. nomzodi diss.). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

[7]Yo‘ldoshev A. (2014). Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida mustaqil ta’limni tashkil etish. (Ped. fan. nomzodi diss.). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

[8]Mirbabayeva, S. (2025). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishda muammo talqini. Ta’lim va Jamiyat, 4(1), 52–58.

yondashuv ta'lim tizimining tub mohiyatini o'zgartiradi. U o'qituvchini markazdan olib, talabani markazga qo'yadi. An'anaviy ta'limda asosiy urg'u bilim berishga qaratilgan bo'lsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'limda asosiy maqsad - talabaning shaxsiy o'sishi, mustaqilligi va metakognitiv faolligidir.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) insonning kundalik hayoti, ish faoliyati, hamda ta'lim tizimini tubdan yangilamoqda[9]. Raqamli davrda insonning o'zini dolzarb axborot oqimida samarali tutishi uchun faqat texnik ko'nikmalar yetarli emas; buning uchun keng ko'lamli axborot kompetensiyasi, ya'ni axborotni topish, baholash, boshqarish va tanqidiy tahlil qilish kompetensiyasi zarur. Axborot kompetensiyasi insonning kompyuter, mobil qurilmalar, dasturiy vositalarni bilish va foydalanishidan iborat bo'lib, shuningdek, tarmoqlar orqali axborotni qidirish, yig'ish, strukturalashtirish, yaratish, xavfsiz foydalanish va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi va olimlarimiz ushbu kompetensiyani "AKT vositalaridan foydalanish, boshqarish va ijtimoiy hayotda maqsadli qo'llash" deb tanitadi[10]. Axborot kompetensiyasi o'zi ham alohida tariflarga ajratiladi: axborotni qidirish, baholash, boshqarish, yaratish va taqdim qilish. Wikipedia ma'lumotlariga ko'ra, bu kompetensiya "hayot davomida uzluksiz o'rganish va axborotni tahlil qilish - asosiy ko'nikma" sifatida qaraladi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim va kasbiy faoliyat talablariga javob beradigan pedagog va talaba uchun AKT va axborot kompetensiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq, birgalikda shakllantirilsa, har bir kishi raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin[11]. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'limning mazmuni va shakli keskin o'zgarishga uchramoqda. Bu o'zgarishlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Raqamli savodxonlik va axborot kompetensiyasi zamonaviy insonning kasbiy, madaniy va ijtimoiy hayotida ajralmas tarkibiy qismga aylanmoqda. AKT tushunchasi asosan kompyuter, internet, mobil texnologiyalar, tarmoqli aloqa va raqamli axborotni ishlab chiqish, uzatish va saqlash vositalarini o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar orqali axborotga kirish, uni boshqarish, yaratish va almashish imkoniyati kengaymoqda. Shu bois, nafaqat texnik ko'nikmalar, balki axborot bilan ishlash bo'yicha axborot kompetensiyasi bugungi kunning asosiy ko'nikmasi sifatida e'tirof etilmoqda. Axborot kompetensiyasi bu - shaxsning turli manbalardan axborotni mustaqil izlab topishi, saralashi, baholashi, undan maqsadga muvofiq foydalanishi, uni tahlil qilishi va o'z faoliyatida qo'llash ko'nikmasidir. Bu kompetensiya ko'pincha quyidagi asosiy ko'nikmalardan tashkil topadi:

- *axborotni izlash va topish:* kerakli axborotga ega bo'lish uchun samarali qidiruv strategiyalarini ishlab chiqish va axborot manbalarini tahlil qilish;
- *axborotni baholash:* manbalar ishonchliligi, yangiligi, muallifligi, obyektivligi asosida axborotni tanqidiy tahlil qilish;
- *axborotni boshqarish:* axborotni saqlash, tashkil qilish, kategoriyalarga ajratish va uni tizimlashtirish;

---

[9]Owusu-Ansah, E. K. (2004). Information literacy and higher education. (PhD thesis). Kent State University, USA. – 280 p.

[10]Далингер, В. А. (2007). Формирование информационной компетентности учащихся средней школы (Дисс. канд. пед. наук). Томск. – 190 с.

[11]Лопаткин, В. А. (2013). Теоретические основы формирования информационной культуры (Дисс. д-ра пед. наук). Москва. – 280 с.

- *axborotni yaratish va ifodalash:* mavjud axborot asosida yangi g‘oya, kontent, prezentatsiya yoki ilmiy ish yaratish;
- *etik va ijtimoiy jihatlari:* mualliflik huquqlariga rioya qilish, plagiatdan saqlanish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish.

Axborot kompetensiyasi nafaqat talabalarda, balki o‘qituvchilarda ham yetarlicha shakllangan bo‘lishi lozim. Pedagog AKT vositalaridan foydalanib, bilim berishni interfaol, shaxsga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishi zarur, unga ko‘ra pedagoglarda quyidagi raqamli kompetensiyalar bo‘lishi talab etiladi[12]:

- raqamli vositalarni darsga integratsiya qilish;
- talabalar raqamli xavfsizligini ta’minlash;
- dars resurslarini mustaqil yaratish va baholash;
- onlayn o‘qitish va teskari aloqa berish ko‘nikmasi;

Shu boisdan, zamonaviy o‘qituvchi “axborot vositachisi”dan “raqamli bilim rahbari”ga aylanishi talab etilmoqda. Axborot kompetensiyasini rivojlantirishda an’anaviy o‘qitish metodlari yetarli emas. Chunki bu kompetensiya faqat bilimni yod olish emas, balki axborotni tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish kabi murakkab kognitiv faoliyatlarni talab qiladi. Bularning barchasi axborot kompetensiyasining mustahkam rivojlanishini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni zaruratga aylantiradi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Biroq hozirda pedagoglarda raqamli kompetensiyasining yetarli emasligi; ta’lim tashkilotlarida internet va texnik vositalarning yetishmasligi; ta’lim resurslarining asosiy qismi rus va ingliz tillarida bo‘lishi; axborotni baholash va tanqidiy tahlil qilishning kamligi kabi muammolar mavjud. Quyida O‘zbekistonda axborot kompetensiyasini rivojlantirishga oid tavsiyalar keltirilmoqda:

- pedagoglar uchun raqamli kompetensiya kurslarini tizimli yo‘lga qo‘yish;
- darslik va metodik qo‘llanmalarda axborot bilan ishlash topshiriqlarini ko‘paytirish;
- “Axborot kompetensiyasi” bo‘yicha alohida fan yoki modullarni kiritish;
- talabalar portfoliolari orqali raqamli kontent yaratish va tahlil qilish ko‘nikmalarini baholash;
- ta’lim dasturlarini DigComp va ISTE standartlari bilan integratsiyalash;
- ta’lim tashkilotlarida “media-savodxonlik klublari” tashkil etish;
- onlayn va oflayn axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus treninglar.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston ta’lim tizimida nafaqat axborot kompetensiyasi, balki umumiy raqamli madaniyat ham sezilarli o‘sishga erishadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va axborot-savodxonlik yondoshuvlari bir qator o‘xshashliklarga ega. Avvalo, ikkala yondashuv ham talabaning faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi va ijodkorligi ustuvor ekanini ta’kidlaydi. Masalan, talaba markazda yondashuvi darslar muammoli vazifalar va loyihalar orqali tashkil etilganda, talabalar resurslarni izlab topib, ma’lumotni tanqidiy baholab o‘rganadilar. Shu bilan birga, axborot-savodxonlik metodlari ham talabalarga

[12]Mamajonova, D. (2021). Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlar. (Ped. fan. nomzodi diss.). Farg‘ona davlat universiteti. – 150 b.

ma’lumotlarni baholash va qo‘llashni o‘rgatadi[13]. Demak, ikkala yondashuv talaba tanqidiy fikrlash va faollikka asoslanganligi jihatidan uyg‘undir. Shuningdek, ikkala uslub ham ijtimoiy hamkorlikni rivojlantiradi: guruhda o‘rganish orqali talabalar o‘rtasida muloqot, fikr almashish va jamoaviy muammolarni hal etish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Farqli jihatlari esa, ushbu yondashuvlarning maqsadi va qamrovida ko‘rinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv talabaning shaxsiy tajribasi, emotsional holati va motivatsiyasini hisobga oladi. Bu yondashuvda ta’lim jarayoni individual qiyofani oladi, ya’ni har bir talaba shaxs sifatida e’tiborga olinadi[14]. Uning dasturi, baholash usullari va qo‘llab-quvvatlash usuli talabaning ongli tanlovi va ehtiyojiga mos moslashtiriladi. Aksincha, axborot-savodxonlik ko‘proq aniq kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda e’tibor asosan axborot qidirish texnikasi, manbalarni tanlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va yaratish ko‘nikmalariga beriladi[15]. Shunday qilib, umumiy jihatlar- talabani faol o‘rganishga jalb qilish va tanqidiy fikrlashni targ‘ib qilish, farqli jihatlar esa- shaxsiylashtirish darajasi va o‘rganilayotgan sohaning aniq-texnik yo‘nalishida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldiradi. Masalan, shaxsga yo‘naltirilgan darslarda axborot-savodxonlik loyihalari qo‘shilishi mumkin: talaba o‘z qiziqqan mavzu bo‘yicha maqolalar, kitoblar izlab topib, ularni tahlil qilish orqali nafaqat mavzuni, balki axborot manbalarini tanlash ko‘nikmalarini ham egallaydi[16]. Bond tadqiqotiga ko‘ra, faol va izlanishga asoslangan ta’lim usullari integratsiyalashgan kurslarda axborot-savodxonlik elementlari doimiy ravishda joriy qilingan va talabalarni mustaqil izlanishga undagan. Ya’ni, talab markazli yondashuv axborot-savodxonlikni rivojlantirishga tabiiy zamin yaratadi, aks holda axborot-savodxonlik faqat “qo‘shimcha fan” darajasida qolib ketishi mumkin[17]. Axborot kompetensiyasi deganda, shaxsning axborotni izlash, baholash, qayta ishlash, uni maqsadli kontekstda qo‘llash kompetensiyasi tushuniladi. Bugungi kunda bu tushuncha raqamli savodxonlik, media-kompetensiya, tanqidiy fikrlash va ijodiy tafakkur bilan chambarchas bog‘liq[18]. Bu yo‘nalishda xalqaro miqyosda qabul qilingan ikki muhim konseptual model mavjud[19]: AASL (American Association of School Librarians) standartlari va SCONUL (Society of College, National and University Libraries) yetti poydevor modeli (Seven Pillars of Information Literacy). Har ikkisi ham axborot kompetensiyasini shakllantirish va baholashda ijtimoiy-kontekstual yondashuvni ilgari suradi[20]. AASL modeli AQSh OTT kutubxonachilari

[13]O'Connor L.G. (2009). Information literacy in the college curriculum. (PhD thesis). University of Illinois at Urbana-Champaign, USA. – 260 p.
[14]Hepworth, M. (2000). Approaches to information literacy instruction. (PhD thesis). Loughborough University, UK. – 260 p.
[15]Далингер, В. А. (2007). Формирование информационной компетентности учащихся средней школы (Дисс. канд. пед. наук). Томск. – 190 с.
[16]McKinney, P. (2006). Information literacy in higher education. (PhD thesis). University of Sheffield, UK. -270 p.
[17]Bond, W. (2012). Information literacy instruction: Theory and practice. (Doctoral thesis). Trinity Western University, Canada. – 280 p.
[18]Далингер, В. А. (2007). Формирование информационной компетентности учащихся средней школы (Дисс. канд. пед. наук). Томск. – 190 с.
[19]Sobirova, N. (2019). O‘qituvchilarning axborot savodxonligini rivojlantirish metodikasi. (Ped. fan. nomzodi diss.). Termiz davlat universiteti. – 140 b.
[20]Mamajonova, D. (2021). Talabalarning axborot madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlar. (Ped. fan. nomzodi diss.). Farg‘ona davlat universiteti. – 150 b.

assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, axborot bilan ishlashda talabalarda tanqidiy va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. AASL modeli quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi[21]:

- talabalar axborotni mustaqil tahlil qilishi, sintez qilishi va tanqidiy fikr yuritishi lozim
- samarali va etik axborot qidirish strategiyalarini ishlab chiqish
- mavjud axborot asosida yangi bilim hosil qilish
- axborotni madaniy va ijtimoiy kontekstda etik qo‘llash
- o‘rganish jarayonini va natijani o‘zi baholay olish

AASL modeli axborot kompetensiyasini faqat texnik ko‘nikma emas, balki madaniy, ijtimoiy, axloqiy va tanqidiy jarayon sifatida ko‘radi. Bu jihatdan modelning ijtimoiy-kontekstual baholashga urg‘u berishi talabalarni ko‘p taraflama tahliliy tafakkurga yo‘naltiradi[22]. Keyingi modellardan yana biri SCONUL yetti bosqichli modeli bo‘lib, ilk bor 1999-yilda Buyuk Britaniyada ishlab chiqilgan bo‘lib, 2011-yilda qayta ishlangan shaklda e’lon qilindi. Bu model talabalar va ilmiy tadqiqotchilar uchun axborot savodxonligini tizimli asosda rivojlantirishga mo‘ljallangan. Model quyidagi yetti asosiy bosqichdan iborat[23]:

1. *Identify*- muammoni aniqlash: foydalanuvchi axborot ehtiyojini tushunadi;
2. *Scope*- manbalarni tushunish: mavjud axborot manbalarini tahlil qiladi;
3. *Plan*- axborot izlash strategiyasini ishlab chiqish: rejalashtirish va samarali qidirish yo‘llarini tanlash;
4. *Gather*- axborotni to‘plash: ishonchli manbalardan axborot yig‘ish;
5. *Evaluate*-axborotni baholash: axborotning sifatini, dolzarbligini va ishonchliligini tekshirish;
6. *Manage*-axborotni boshqarish: to‘plangan axborotni tartibga solish, tizimlashtirish;
7. *Present*- axborotni taqdim etish: mos shaklda axborotni baham ko‘rish, huquqiy va etik mas’uliyatni inobatga olgan holda.

Talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ishlab chiqish jarayonida bir qator muhim pedagogik, psixologik, metodik nazariyalar asos qilib olindi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonida axborot kompetensiyasi bugungi kunda eng muhim kompetensiyalaridan biridir. Chunki zamonaviy ta’lim tizimi talabalardan nafaqat axborotni topish, balki uni tahlil qilish, saralash, baholash, qayta ishlash va undan to‘g‘ri foydalanishni talab etadi. Shu sababli ishlab chiqilgan mashqlar xalqaro miqyosda tan olingan axborot savodxonligi, konstruktivizm, raqamli didaktika va talaba markazlashgan ta’lim nazariyalari asosida yaratildi. Avvalo, mashqlarning nazariy asosini konstruktivistik ta’lim nazariyasi tashkil etdi. Ushbu yondashuv Jean Piaget va Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan g‘oyalarga tayandi[24]. Konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, talaba bilimni tayyor shaklda olmaydi, balki mustaqil faoliyat, tajriba va

[21]Nishonova, S. (2010). Pedagogik jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. (Ped. fan. doktori diss.). Toshkent davlat pedagogika universiteti. – 230 b

[22]American Association of School Librarians. (2009). Empowering learners: Guidelines for school library media programs. Chicago, IL: ALA.

[23] Piaget, J. The psychology of intelligence. – London: Routledge, 1950. – 182 p.

[24] Piaget, J. The psychology of intelligence. – London: Routledge, 1950. – 182 p.

muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali bilimni o‘zi shakllantiradi[25]. Shu asosda mashqlar talabalarning mustaqil axborot izlash, turli manbalarni solishtirish, ma’lumotlarning ishonchliligini baholash va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasida esa hamkorlikdagi ta’lim muhim o‘rin egallaydi[26]. Shu sababli ayrim mashqlar guruhli ishlar, munozaralar va loyiha asosidagi topshiriqlar shaklida tashkil qilindi. Shuningdek, mashqlarni ishlab chiqishda John Deweyning talaba markazlashgan ta’lim tamoyillariga ham tayanildi, u ta’lim real hayot bilan bog‘liq bo‘lishi va amaliy faoliyat orqali tashkil etilishi kerakligini ta’kidlagan[27]. Shu asosda ishlab chiqilgan mashqlar autentik materiallar, internet manbalari, maqolalar, raqamli resurslar va muammoli vaziyatlar bilan ishlashga yo‘naltirildi. Talabalar onlayn manbalarning ishonchliligini aniqlash, noto‘g‘ri axborotni farqlash va akademik halollik qoidalariga rioya qilish kabi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashqlarni yaratishda axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro modellar ham muhim metodik asos vazifasini bajardi. Jumladan, AASL tomonidan ishlab chiqilgan axborot savodxonligi standartlari va SCONUL modeli asos qilib olindi[28]. Ushbu modellar axborot kompetensiyasini axborotga ehtiyojni aniqlash, kerakli ma’lumotni topish, manbalarni tanqidiy baholash, axborotni boshqarish va undan etik foydalanish ko‘nikmai sifatida talqin qiladi. Shu sababli mashqlarda kalit so‘zlar bilan ishlash, manbalarni tahlil qilish, havola keltirish, ma’lumotlarni saralash va umumlashtirish kabi topshiriqlarga keng o‘rin berildi. Bundan tashqari, mashqlarni amaliy jihatdan tashkil etishda Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli muhim ahamiyat kasb etdi[29]. Ushbu model texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarning integratsiyasiga asoslanadi. Natijada mashqlarda raqamli platformalar, onlayn vositalar, multimedia resurslari hamda interaktiv texnologiyalardan foydalanildi. Talabalar elektron kutubxonalar, qidiruv tizimlari va raqamli ta’lim platformalari bilan ishlash orqali axborotni boshqarish hamda undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Shuningdek, mashqlarni ishlab chiqishda Anderson va Krathwohl tomonidan takomillashtirilgan Blum taksonomiyasi tamoyillariga ham amal qilindi[30]. Mashqlar oddiy bilim va tushunish bosqichidan boshlab tahlil qilish, baholash va yangi g‘oyalar yaratish kabi yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga bosqichma-bosqich yo‘naltirildi. Bu esa talabalarning axborot bilan ishlash jarayonida chuqur analitik va tanqidiy yondashuvni shakllantirishga yordam berdi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan mashqlar konstruktivistik yondashuv, talaba markazlashgan ta’lim, axborot

[25] Vygotsky, L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
[26] Dewey, J. Democracy and education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
[27] Dewey, J. Democracy and education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
[28] Association of College and Research Libraries. Information literacy competency standards for higher education. – Chicago: ACRL, 2000. – 18 p. Society of College, National and University Libraries. The SCONUL Seven Pillars of Information Literacy: Core Model for Higher Education. – London: SCONUL, 2011. – 16 p.
[29] Mishra, P., Koehler, M. J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.
[30] Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p. Bloom, B. S. Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. – New York: David McKay Company, 1956. – 207 p.

savodxonligi modellari, raqamli didaktika va zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida yaratildi. Ushbu nazariy va amaliy asoslar talabalarning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim olish va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qildi. Talabalarda matnlar bilan ishlash jarayonida axborotning ishonchliligini tekshirish, yashirin ma'nolarni anglash, shuningdek, muallifning maqsadini, aniqlash malakasini rivojlantirish muhim sanaladi. Bu, o'z navbatida, talabalarda nafaqat lingvistik, balki tanqidiy axborot-kompetensiyasini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Mana shu tamoyillarga tayangan holda biz tadqiqot ishi davomida bir nechta mashq turlarini ishlab chiqib ularni taklif sifatida ishimizning tajriba-sinov qismida sinovdan o'tkazdik.

"Lateral Reading" challenge yoki gorizontal o'qish deb nomlangan mashq turi. Mazkur amaliy mashq doirasida talabalarga tarkibida faktuallik darajasi past bo'lgan, shubhali, bir tomonlama xarakterga ega veb-sayt materiali yoki onlayn-maqola tahlil uchun taqdim etiladi. Ular matnning o'zini o'qish bilan cheklanmay, boshqa manbalarni ham o'rganish orqali manbaning ishonchliligi, xolisona yondashilganini tekshiradilar. Talabalar manbalarni qiyoslash, hamda birlamchi va ikkilamchi axborot platformalaridagi o'zaro moslikni tahlil qilish orqali axborot kompetensiyasini rivojlantirishga erishadilar.

Abstract-to-Core matching ya'ni annotatsiyalarni saralash mashq turi. Talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatining dastlabki bosqichlarida axborot resurslarini, hamda bibliografik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur amaliy mashq doirasida talabalarga xalqaro ma'lumotlar bazalaridan saralab olingan, muayyan muammoli sohaga oid ilmiy maqolalarning annotatsiya qismi taqdim etiladi. Mazkur mashqning vazifasi talabalarning ilmiy-tadqiqot muammolari yoki o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni tahlil qilish va tanlab o'qish ko'nikmalari orqali axborot kompetensiyasini rivojlantirishdir. Mazkur mashq talabalardan qisqa vaqt davomida matnning mazmunini aniqlashni, metodologik muvofiqlikni baholashni va ikkinchi darajali axborot oqimidan asosiy ilmiy dalillarni farqlashni talab etadi. Bu mashq talabalarning axborot-qidiruv kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usuli bo'lib xizmat qildi. Bugungi raqamli ta'lim muhitida audio va video axborot oqimi juda jadal rivojlanib bormoqda. Tinglash orqali yolg'on ma'lumotni aniqlash axborot kompetensiyasining eng muhim qismidir.

Bias Detection in Podcasts mashq turi ham axborot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu mashqda talabalarga bahsli mavzuda tayyorlangan podkast yoki intervyu beriladi. Talabalar shunchaki umumiy mazmunga chalg'imasdan, diqqatni video yoki audiodagi kalit sifatida tanlangan so'zlarga, uning ovoz ohangiga va o'z fikrini isbotlash uchun keltirgan dalillariga qaratadilar. Mana shu belgilar orqali talabalar spikerning ochiq aytilmagan shaxsiy qarashlarini, uning muayyan bir tomonga xayrixohlik bildirayotganini yoki bir tomonlama fikrlayotganini aniqlashlari zarur hisoblanadi. Bu turdagi amaliy mashqlar talabalarning axborotni tinglab tahlil qilish, undagi haqiqat va shaxsiy fikrni ajratish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Data-Speech Verification mashqi, unga koʻra nutq va vizual maʼlumot mosligi oʻzaro tekshiriladi. Talabalarning tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirishda axborotni bir vaqtning oʻzida ham eshitish, ham koʻrish orqali qabul qilish hamda ularni oʻzaro solishtirish samarali boʻladi. Mashq davomida talabalar muayyan bir soha mutaxassisining maʼruzasi yoki taqdimotini tinglashadi. Shu bilan bir vaqtda, ularga ushbu nutq mavzusiga doir raqamli maʼlumotlar, yaʼni statistik grafiklar, diagrammalar va jadvallar tarqatiladi. Talabalar maruzachi tilga olayotgan faktlar, foizlar va koʻrsatkichlarning qoʻllaridagi chizmalarga va jadvallarga mos kelish-kelmasligini diqqat bilan kuzatadilar. Shu orqali berilayotgan malumotdan nutq va raqamli, vizual malumotlarning oʻzaro mosligini tekshirib, axborot kompetensiyasini rivojlantirishga erishildi.

Ushbu mashqlar natijalarini baholash uchun maxsus baholash mezoni ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval


Axborot kompetensiyasini baholash mezoni

Kognitiv mezon	chet tilidagi axborot manbalarini tushunish va tahlil qilish; asosiy va ikkinchi darajali maʼlumotni farqlash koʻnikmai; leksik va semantik birliklarni kontekstda toʻgʻri talqin qilish; axborotning ishonchliligini CRAAP tamoyillari asosida dastlabki baholash **Mezon:** toʻgʻri tushunish, tahlil qilish va interpretatsiya qilish darajasi
Operatsion-faoliyatli mezon	chet tilida axborot qidirish strategiyalaridan foydalanish; elektron resurslar, akademik bazalar va onlayn platformalardan samarali foydalanish; axborotni saralash, tizimlashtirish va qayta ishlash; SCONUL modeliga muvofiq axborot siklini bosqichma-bosqich bajarish **Mezon:** mustaqil axborot topish va uni qayta ishlash samaradorligi
Kommunikativ mezon	olingan axborotni chet tilida ogʻzaki va yozma shaklda ifodalash; akademik yozuvga rioya qilish; parafraza qilish va plagiatdan qochish koʻnikmasi; axborotni muloqot jarayonida aniq va mantiqiy yetkazish **Mezon:** til kompetensiyasi va axborotni ifodalash aniqligi
Refleksiv mezon	oʻz axborot izlash strategiyalarini tahlil qilish; xatolarni aniqlash va ularni tuzatish koʻnikmai; oʻquv jarayonida mustaqil xulosa chiqarish; raqamli muhitda masʼuliyatli foydalanish **Mezon:** mustaqil fikrlash va oʻz-oʻzini rivojlantirish darajasi
Yakuniy baholash darajalari	
Yuqori daraja	barcha komponentlar mustaqil va toʻliq bajariladi
Oʻrta daraja	ayrim koʻnikmalar yetarli, lekin mukammal emas
Past daraja	axborot bilan ishlashda qiyinchiliklar mavjud

Ushbu mashqlar talabalarda axborotni ikki tomonlama tahlil qilish, muammoga nisbatan xolis yondashuvni shakllantirish, guruhdoshining kamchiliklarini topish va oʻz fikrini dalillar yordamida ogʻzaki nutqda muvaffaqiyatli himoya qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida chet tilini oʻqitishda axborot kompetensiyasini shaxga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida rivojlantirish uchun maxsus metodik model ishlab chiqildi (1-modelga qarang):

Ushbu model konseptual modelning asosiy tamoyillariga asosan ishlab chiqildi va ushbu model axborot kompetentligi asosida chet tilini oʻqitishning integrativ modeli deya nomlandi, quyida uning asosiy gʻoyasi va tarkibiy qismlari xususida maʼlumot taqdim etiladi.



1-model: Axborot kompetensiyasi va chet til ta’limi integratsiyasi modeli

Modelning asosiy g‘oyasi chet tilini o‘rganish jarayonida axborot kompetentligini rivojlantirishni markazga qo‘yadi. Unda talaba zamonaviy texnologiyalar yordamida til o‘rganish vositalarini mustaqil topish, tahlil qilish, baholash va ulardan samarali foydalanishni o‘rganadi. Ushbu g‘oya asosida modelning quyidagi tarkibiy qismlari aniqlab olindi:

kognitiv blok: axborot va uning turlari haqidagi bilimlar, chet tili grammatikasi, leksikasi va madaniy konteksti, axborot manbalaridan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi;

operatsion-blok axborotni izlash: Google, JSTOR, Linguee, YouTube kabi manbalarni samarali qo‘llash, axborotni tahlil qilish: ishonchlilikni tekshirish, til uslubi, kontekstni aniqlash, axborotdan foydalanish: esse yozish, tarjima qilish, og‘zaki chiqish tayyorlash kabi tarkibdan iborat;

reflektiv blok: o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholash, til o‘rganish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish, feedback asosida rivojlanish kabi qismlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu integrativ modelimiz quyidagi asosiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Modelning tamoyillari

Tamoyillar	Izoh
Integratsiya	Til o‘rganish axborot kompetentligini shakllantirish bilan bog‘liq tarzda olib boriladi
Faollik	O‘rganuvchi axborotni izlash, saralash va tahlil qilishda faol bo‘ladi
Refleksiya	O‘rganuvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi va takomillashtiradi
Texnologik moslashuvchanlik	Zamonaviy IT vositalari (ChatGPT, AI tarjimonlar, quiz platformalari) faol qo‘llaniladi

Modellarga qo‘yilgan talablarga ko‘ra, ular ishlab chiqilishi jarayonida albatta metodik yondashuvlar integratsiyasi qonuniyatlariga ham amal qilishi lozim. Biz ushbu modelni taklif qilish jarayonida quyidagi metodik yondashuvlarga tayandik: CLIL (Content and Language Integrated Learning): chet tilida axborot izlash va uni o‘rganish orqali tilni egallash; task-based learning: axborotga asoslangan topshiriqlar bajarish; project-based learning: axborot izlab loyiha tayyorlash (prezentatsiya, video, maqola); digital literacy integration: raqamli savodxonlikni til o‘rganishga integratsiya qilish. Ushbu metodik yondashuvlar bugungi kunda sifatli ta’limni joriy qilishga xizmat qilmoqda, aynan mana shu ko‘rsatkich bizga model mazmunini shakllantirishda ushbu yondashuvlardan foydalanishga asos bo‘lib xizmat qildi. Har qanday model yaratilishida undan kutilayotgan natijalarning gipotezasi aniqlab olinib, asosli ravishda prognoz qilinadi, ya’ni ushbu model komponentlarining yoki modelning har bir bosqichi tizimli ishlaganda qanday natijalarga erishilishi oldindan bashorat qilinadi, biz taklif etgan ushbu modelda kutilayotgan amaliy natijalar quyidagilar etib belgilangan (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Modeldan kutilayotgan natijalar

Kompetensiya turi	Namoyon bo‘lish shakli
Axborot kompetentligi	Mustaqil izlash, tahlil qilish, foydalanish
Nutq kompetensiyasi	Gapirish, yozish, tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalari
Madaniyatlararo muloqot	Chet tilidagi madaniy kontekstni tushunish va qo‘llash
Metakognitiv kompetensiya	O‘z faoliyatini rejalashtirish, baholash, rivojlantirish

Axborot asri sharoitida bilim va malakalarning eng muhim koʻrinishlaridan biri bu axborot bilan ongli, samarali va mas'uliyatli ishlash kompetensiyasidir. Bunday kompetensiyani odatda "axborot savodxonligi" yoki "axborot kompetensiyasi" deb atashadi[31]. Axborot kompetensiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri - bu mavjud manbalarni tanqidiy tahlil qilish va ularning ishonchliligini baholashdir. Aynan shu nuqtada CRAAP modeli (Currency, Relevance, Authority, Accuracy, Purpose) eng samarali yondashuvlardan biri sifatida ilmiy va amaliy ta'limda qoʻllanilmoqda[32]. Ushbu model ilk bora California State University tomonidan 2004-yilda ishlab chiqilgan va hozirda butun dunyo boʻylab kutubxonachilik, pedagogik yondashuv, til oʻqitish, ilmiy tadqiqot metodologiyasi sohalarida qoʻllanilmoqda[33]. CRAAP modeli - bu axborot manbalarini besh asosiy mezon asosida tahlil qilish tizimidir[34]. Har bir harf ma'lum bir tanqidiy baholash mezonini anglatadi[35]: **1. Currency-yangilik, dolzarblik:** bu mezon manbaning hozirgi zamon uchun qanchalik yangilangan va dolzarb ekanligini aniqlashga xizmat qiladi, masalan, ilm-fan sohasida, ayniqsa texnologiya, tibbiyot yoki ekologiya kabi tez oʻzgaruvchan yoʻnalishlarda ma'lumotlarning eng soʻnggi holati muhim hisoblanadi. Tahlil uchun savollar: Maqola yoki kitob qachon yozilgan? Ma'lumotlar yangilanadimi? Bu mavzuda yangi tadqiqotlar mavjudmi? **2. Relevance-moslik, tegishlilik:** ushbu mezon manbaning foydalanuvchi ehtiyojlariga yoki muayyan vazifaga qanchalik mos kelishini oʻlchaydi. Bu talabalarga har qanday axborotni emas, balki ayni mavzuga oid, aniq va kerakli ma'lumotlarni ajratishga yordam beradi. Tahlil uchun savollar: Bu manba mening tadqiqotimga toʻgʻridan-toʻgʻri aloqador boʻladimi? Maqsadli auditoriya kim? **3. Authority-mualliflik, vakolat**: axborotni kim yaratganini aniqlash ishonchlilik uchun juda muhim. Agar muallif soha boʻyicha malakali boʻlsa, manbaga ishonish mumkin. Aks holda, notoʻgʻri, asossiz yoki shaxsiy fikrga asoslangan axborot tarqalishi mumkin. Tahlil uchun savollar: Muallif kim va u qaysi tashkilotga tegishli? Muallifning ilmiy darajasi yoki tajribasi bormi? Noshir (masalan, jurnal yoki vebsayt) nufuzlimi? **4. Accuracy-aniqlik, ishonchlilik:** bu mezon axborotning toʻgʻriligini, faktlarga asoslanganligini va ilmiy mezonlarga javob berishini tekshiradi. Ayniqsa, statistika, tahliliy ma'lumotlar, iqtiboslar va havolalar borasida aniqlik juda muhim. Tahlil uchun savollar: Ma'lumot faktlarga asoslanganmi yoki shunchaki fikrlarmi? Maqolada dalillar keltirilganmi? Grammatik xatolar bormi? Plagiat holatlari aniqlanganmi? **5. Purpose-maqsad, motivatsiya:** manba maqsadining aniqligi - uning xolisligini baholash imkonini beradi. Har qanday axborot oʻziga xos niyat bilan yaratiladi: ma'lumot berish, oʻyin-kulgi, reklama, propaganda. Bu mezon orqali talabamanipulyatsiya yoki yolgʻon axborot qurboniga aylanishdan himoyalanadi. Tahlil uchun savollar: Maqolaning maqsadi nima:

[31]Blakeslee, S. (2004). The CRAAP test. LOEX Quarterly, 31(3), 6–7.

[32]Tseng, S.-F., Tzeng, Y.-H., & Hung, C.-C. (2015). Improving students' critical evaluation of online resources with the CRAAP test in blended learning. Journal of Educational Technology & Society, 18(4), 221–233.

[33]Elmore, E. (2017). Teaching students to evaluate sources: Adapting the CRAAP test for the digital age. Journal of Library Instruction, 9(1), 45–52

[34]Ouyang, F., & Stanley, N. (2014). Enhancing information literacy instruction: Integrating the CRAAP test into first-year composition courses. Communications in Information Literacy, 8(2), 211–226.

[35]Blakeslee, S. (2004). The CRAAP test. LOEX Quarterly, 31(3), 6–7.

xolislik, targ‘ibot, yoki sotuv? Muallif betaraflikni saqlaganmi? Emotsional yoki hissiy ta’sirga yo‘naltirilgan til ishlatilganmi?

CRAAP modeli yordamida foydalanuvchi soxta yangilik, noto‘g‘ri faktlar va sarlavhalarni aniqlab, tanqidiy fikr yuritishni o‘rganadi, loyiha va tadqiqot ishlari uchun talabalar mustaqil ravishda ma’lumot to‘plash, tahlil qilish, va undan foydalanish bosqichlarida mezon asosida har bir manbani baholaydi[36]. Albatta ushbu modelning yutuqlari bilan birgalikda, integratsiya jarayonida quyidagi qiyinchiliklar yuzaga chiqishiga ham sabab bo‘ldi, ushbu kamchilik va cheklovlar quyidagilardir: har bir mezonni baholash subyektiv talqinga bog‘liq bo‘lishi mumkin; ba’zi hollarda mezonlar bir-biriga zid ma’lumot beradi, masalan, dolzarb manba, lekin noma’lum muallif; hamisha ham talabalar mezonlarni chuqur anglab baholay olmaydi - maxsus trening kerak bo‘ladi[37]. CRAAP modeli zamonaviy ta’limda axborot kompetensiyasini shakllantirish va mustahkamlashda universal vosita hisoblanadi[38]. Ayniqsa ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganish jarayonida, talabalar manbalarni tanlash, baholash va ulardan samarali foydalanishni o‘rganishi uchun ushbu model juda qulay va zarurdir. Bu model talabani passiv iste’molchidan faol, tanqidiy fikrlovchi foydalanuvchiga aylantiradi.

Dissertatsiyaning “Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish” nomli uchinchi bobi tadqiqot samaradorligini aniqlashga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov ishlariga bag‘ishlangan. Tajriba-sinovda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Navoiy davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillar institutining 450 nafar talabalari ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlarida yuqorida keltirilgan ta’lim tashkilotlaridagi respodentlarni tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlar

№	Ta’lim tashkilotlari	Jami talabalar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	142	70	72
2.	Navoiy davlat pedagogik universiteti	159	82	77
3.	Samarqand davlat chet tillar instituti	149	78	71
Jami		450	230	220


Talabalar nazorat va tajriba guruhlariga bo‘lindi. Ajratilgan guruhlarda tajribaning tashkil qilinishi turlicha bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlari filologiya- ingliz tili ta’lim yo‘nalishlari talabalari ishtirokida olib borildi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib, ular tashxis va bashorat qilish, tashkiliy tayyorgarlik, amaliy va umumlashtiruvchi bosqichlardir. *Tashkiliy tayyorgarlik bosqichida* tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish kuni, vaqti, tajriba-sinov muddati va o‘quv materiali miqdori belgilandi va tajriba-sinovda ishtirok etuvchilar tanlab olindi. Prognostik bosqichida aniqlangan muammo asosida metodik va didaktik ta’minot ishlab chiqildi, muammo asosida metodik va didaktik ta’minot ishlab chiqildi. Shunday qilib, talabalar til kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tajriba–

[36]Robinson, S., & Reid, M. (2020). Implementing the CRAAP test in online information literacy tutorials. Journal of Academic Librarianship, 46(5), Article 102178.


[37]Metzger, M. J., & Flanagin, A. J. (2013). Using the CRAAP test to enhance web credibility assessment among college students. Journal of Applied Communication Research, 41(4), 377–396.

[38]McClure, R., & Clink, K. (2009). How do you know that? Teaching students to evaluate web resources using the CRAAP test. Communications in Information Literacy, 3(1), 50–60.

sinov ishining shakllantiruvchi bosqichida mashqlardan foydalanishning o‘ziga xosligi, uning bir paytning o‘zida rivojlantirish va tashxisga yo‘nalganligidir. Ta’lim jarayonida talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlantirish tajriba-sinov dasturi ishlab chiqildi. Bunda maqsad shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali talabalarning axborot kompetensiyasi rivojlanganligining yuqori darajasiga erishishga harakat qilindi. Ushbu dastur to‘rtta izchil tashkil qilingan bosqichdan iborat bo‘lib, ularning har birida axborot kompetensiyasining shu bosqichga muvofiq turini rivojlantirish vazifasi ko‘zda tutildi va maxsus tanlangan shakl, metod va vositalar yordamida ish olib borildi. “Lateral Reading challenge” yoki gorizontal o‘qish deb nomlangan mashq turi talabalarda axborotni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishda samarali didaktik vosita ekanligini quyidagi natijalardan ko‘rishimiz mumkin (1-2-rasmlarga qarang):





1-rasm. “Lateral Reading challenge” mashq turi bo‘yicha dastlabki natijalar




2-rasm. “Lateral Reading challenge” mashq turi bo‘yicha yakuniy natijalar


“Abstract-to-Core matching” ya’ni annotatsiyalarni saralash mashq turi talabalarning axborot-qidiruv kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usuli bo‘lib xizmat qildi (3-4-rasmlarga qarang):





3-rasm. “Abstract-to-Core matching” mashq turi bo‘yicha dastlabki natijalar







4-rasm. “Abstract-to-Core matching” mashq turi bo‘yicha yakuniy natijalar


Bugungi raqamli ta’lim muhitida audio va video axborot oqimi juda jadal rivojlanib bormoqda. Tinglash orqali yolg‘on ma’lumotni aniqlash axborot kompetensiyasining eng muhim qismidir.


“Bias Detection in Podcasts” mashq turi talabalarning axborotni tinglab tahlil qilish, undagi haqiqat va shaxsiy fikrni ajratish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi (5-6-rasmlarga qarang):






5-rasm. “Bias Detection in Podcasts” mashq turi bo‘yicha dastlabki natijalar







6-rasm. “Bias Detection in Podcasts” mashq turi bo‘yicha yakuniy natijalar


“Data-Speech Verification” mashqi berilayotgan malumotdan nutq va raqamli, visual malumotlarning o‘zaro mosligini tekshirib, axborot kompetensiyasini rivojlantirishga erishildi (7-8-rasmlarga qarang):





7-rasm. “Data-Speech Verification” mashq turi bo‘yicha dastlabki natijalar





8-rasm. “Data-Speech Verification” mashq turi bo‘yicha yakuniy natijalar

Oxirgi bosqichda olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirildi (5-jadvalga qarang):

5-jadval

Oxirgi bosqichda olingan natijalar

T/r	Axborot kompetensiyasini rivojlantiruvchi topshiriqlar turilar	OTT	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
			Soni	Yuqori daraja	O‘ rta daraja	Quyi daraja	soni	Yuqori daraja	O‘ rta daraja	quyi daraja
1.	CRAAP asosidagi mashqlar tizimi	O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	16	45	38	97	9	30	58
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	14	39	28	73	7	23	43
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	13	38	32	79	8	20	51
		Jami	230	46	124	93	220	27	75	147
2.	SCONUL mashqlar tizimi	O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	13	39	47	97	8	21	68
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	12	35	34	73	7	16	50
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	11	35	37	79	6	19	54
		Jami	230	36	109	118	220	21	56	172
3.	ASCOL mashqlar tizimi	O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti	99	16	41	42	97	10	24	63
		Navoiy davlat pedagogika universiteti	81	14	36	31	73	7	20	46
		Samarqand davlat chet tillar instituti	83	15	38	30	79	9	20	50
		Jami	230	45	115	103	220	26	64	159

Olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi (Kusb=1,01>1) va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini (Kbdb=0,43>0) ko‘rish mumkin. Bundan ma’lumki, tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari nazorat guruhdagilaridan yuqori miqdorga ega. Ushbu o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$\frac{\bar{X}}{3}\cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{3}\cdot 100\% = \frac{4{,}3}{3}\cdot 100 - \frac{3{,}9}{3}\cdot 100 = \frac{40}{3} = 13{,}33\%$$

Demak, yuqorida keltirilgan statistik tahlillar OTTlarda talabalarning axborot kompetensiyasini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish samaradorligi va natijadorligini oshiradi degan farazning tajriba-sinov natijalariga ko‘ra tasdiqlanganligini e’tirof etish mumkinligiga asos yaratadi.

XULOSALAR

OTTlarda Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan dars o‘tish metodikasi va ilmiy tadqiqot yuzasidan ishlab chiqilgan metodlarning qo‘llanilishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo‘ldi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabani ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi, uni tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi, izlanadigan va o‘z fikrini asoslay oladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu yo‘l bilan talabalarda mustaqil fikrlash, o‘zini anglash va shaxsiy javobgarlik hissi shakllanadi.
2. Axborot kompetensiyasi faqatgina axborotni topish yoki yodlash ko‘nikmasi bilan cheklanmaydi. Bu tushuncha chuqur tahlil qilish, manbalarni solishtirish, axborotning ishonchliligini baholash va undan ijodiy foydalanishni qamrab olgan ko‘nikmalar majmuasini anglatadi.
3. AASL modeli talabalarga axborotni izlash, uni boshqarish, baholash va yakunda mustaqil natija yaratish jarayonlarini bosqichma-bosqich o‘rgatib, ularni yanada samarali o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu model refleksiya, baholash va o‘zini rivojlantirishni doimiy ravishda talab qiladi.
4. SCONUL Seven Pillars modeli esa axborotga ehtiyojni anglashdan tortib, uni izlash, boshqarish, baholash va amalda qo‘llashgacha bo‘lgan jarayonni chuqur o‘rgatadi. Bu model talabalarning mustaqil ilmiy izlanish va professional rivojlanishiga xizmat qiladi.
5. CRAAP modeli orqali talabalar topgan ma’lumotlarini Currency (yangiligi), Relevance (dolzarbligi), Authority (muallifning obro‘si), Accuracy (to‘g‘riligi) va Purpose (maqsadi) mezonlari asosida tanqidiy baholashni o‘rganadilar. Bu esa axborotni tanlashda ongli va mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi.
6. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ushbu xalqaro modellarning imkoniyatlarini yanada kuchaytirib, ularni talabaning individual ko‘nikmalari, ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirishga yordam beradi. Shu orqali talabalar bilim olish jarayoniga chinakam qiziqadi.
7. Elektron resurslar, onlayn kutubxonalar va raqamli platformalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish axborot kompetensiyasini rivojlantirishga katta turtki beradi. Bu talabalarning doimiy ravishda mustaqil axborot izlash ko‘nikmasini shakllantiradi.
8. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llagan holda o‘qituvchi endi faqat ma’lumot yetkazuvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, rag‘batlantiruvchi va talabaning izlanishini boshqaruvchi ko‘makchi sifatida ishtirok etadi. Bu talabalarning o‘zini ishonchli his qilishiga va erkin fikrlashiga sharoit yaratadi.
9. Axborot kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarning kundalik hayotda, kasbiy faoliyatda va jamiyatda raqobatbardosh, ongli va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs bo‘lib yetishishiga yordam beradi.
10. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida AASL, SCONUL va CRAAP modellarini qo‘llash, axborotni izlashdan tortib, uni baholash va ijodiy qo‘llashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni puxta o‘rgatadi. Bu esa talabalarda

zamonaviy dunyo talab qilayotgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va axborotni boshqarish salohiyatini mustahkamlaydi.

Taklif va tavsiyalar

OTTlarda Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan dars o‘tish metodikasi va ilmiy tadqiqot yuzasidan ishlab chiqilgan metodlarning qo‘llanilishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta’lim jarayonini loyihalashda AASL modelining izlash, boshqarish, yaratish va baholash kabi bosqichlarini muntazam qo‘llashni yo‘lga qo‘yish. Shu orqali talabalarda axborotni ongli boshqarish va refleksiya qilish madaniyatini shakllantirishga erishiladi.
2. SCONUL modeliga tayangan holda, talabalarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus topshiriqlar, dars ishlanmalari va amaliy mashg‘ulotlar ishlab chiqish tavsiya etiladi.
3. CRAAP modelidan foydalanib, talabalar bilan axborotni tanqidiy baholash bo‘yicha muntazam treninglar va keys-stadilar o‘tkazish, real hayotiy misollar asosida manbalarni tahlil qilishga o‘rgatish va har bir talabaning qiziqishi, bilim darajasi va ehtiyojlariga mos, mustaqil izlanishga asoslangan loyihalar, taqdimotlar va ijodiy topshiriqlarni joriy qilish va talabalarning o‘z ko‘nikmalarini ko‘rsatishiga imkon berish ,aqsadga muvofiq.
4. Elektron kutubxonalar, ilmiy ma’lumot bazalari, onlayn dars resurslari va multimedia vositalaridan faol foydalanishni dars jarayonining doimiy qismiga aylantirish orqali o‘qituvchilarni malaka oshirish jarayonida AASL, SCONUL va CRAAP kabi ilg‘or modellarni amaliy qo‘llash bo‘yicha maxsus seminar va treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.
5. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni AASL, SCONUL va CRAAP modellarining tamoyillari bilan uyg‘unlashtirib, talabalarda nafaqat bilim, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mas’uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qiluvchi yaxlit metodik tizimni yaratish tavsiya etiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

ЗАЙНИЕВА НАСИБА БАХТИЯРОВНА

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИ НАУКАМ

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2024.1.PhD/Ped7042 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Рустамова Адаш Эшанкуловна** доктор педагогических наук (DSc), доцент
Официальные оппоненты:	**Абдуллаева Лола Тахировна** доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
	Тошбоева Барнохон Одилжоновна доктор педагогических наук (DSc), доцент
Ведущая организация:	Гулистанский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «17» октября 2026 года в 9:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 0003 Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «_____» октября 2026 года.

(Протокол реестра рассылки за № 8 от «_____» октября 2026 года

У.У. Жуманазаров
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук (DSc), профессор

С.И. Аноркулов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологических наук (PhD), доцент

А.Я. Нурмуратов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философии по педагогических наук (PhD), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой практике формирование информационной компетентности будущих учителей иностранных языков на основе личностно-ориентированного подхода, развитие цифровой образовательной среды, а также индивидуализация образовательного процесса признаются одним из приоритетных направлений педагогических исследований. Однако на практике научно-методические механизмы развития компетенций будущих учителей иностранных языков по поиску, критической оценке, обработке и эффективному использованию информации в образовательном процессе с учетом их индивидуальных потребностей и уровня подготовки разработаны недостаточно, что отрицательно сказывается на эффективности их профессиональной подготовки. В связи с этим разработка и внедрение в практику современной дидактической модели, методического обеспечения и диагностико-оценочных механизмов формирования информационной компетентности будущих учителей иностранных языков на основе личностно-ориентированного подхода является актуальной практической задачей.

В последние годы в мировой научной практике проводятся широкомасштабные исследования, направленные на формирование информационной компетентности будущих учителей иностранных языков на основе личностно-ориентированного подхода, цифровой педагогики, медиа- и информационной грамотности, средств искусственного интеллекта, цифровых образовательных платформ, адаптивных технологий обучения, а также компетентностных моделей DigCompEdu, UNESCO и AASL. В данном направлении развитие у будущих учителей навыков поиска, критического анализа, оценки и обработки информации, создания цифрового контента, обеспечения информационной безопасности, а также развития цифровых компетенций в соответствии с индивидуальными образовательными потребностями определено в качестве приоритетных научных направлений. В перспективе проведение научных исследований, направленных на разработку моделей формирования персонализированной информационной компетентности на основе средств генеративного искусственного интеллекта, проектирование индивидуальных траекторий формирования компетенций с использованием образовательной аналитики (Learning Analytics), формирование информационной компетентности в иммерсивной (VR/AR) образовательной среде, а также совершенствование систем диагностической оценки информационной компетентности при подготовке будущих учителей иностранных языков, является актуальным.

В Узбекистане последовательно реализуются системные реформы, направленные на формирование информационной компетентности будущих учителей иностранных языков на основе личностно-ориентированного подхода, развитие цифровых компетенций педагогических кадров, а также интеграцию искусственного интеллекта и современных информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс. В частности, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев отметил: «Сегодня

человечество уверенно вступает в новую цивилизационную эпоху — эпоху искусственного интеллекта. В какой бы сфере это ни происходило, тот, кто первым проявит решительность и последовательность и добьётся конкретных результатов, будет впереди всех»[1], особо подчеркнув стратегическое значение развития искусственного интеллекта и цифровых компетенций. Исходя из этих приоритетных задач, проведение научных исследований, направленных на формирование информационной компетентности будущих учителей иностранных языков на основе личностно-ориентированного подхода, разработку методики эффективного использования цифровых технологий и средств искусственного интеллекта, совершенствование системы диагностической оценки информационной компетентности, а также их интеграцию в педагогическую практику, является актуальным.

Настоящее исследование в определённой степени служит обеспечению выполнения задач, определённых Законом Республики Узбекистан от 29 октября 2019 года ЗРУ-576 «О науке и научной деятельности», Указами Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года ПП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 29 октября 2020 года ПП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 6 июля 2022 года ПП-165 «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022–2026 годы», Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года УП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в организациях высшего образования и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране», от 3 мая 2019 года УП-4306 «О мерах по выявлению талантливой молодежи и организации непрерывной системы подготовки высококвалифицированных кадров», а также другими нормативно-правовыми актами.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Развитие информатизированного общества и демократического государства, социальное, правовое, экономическое, культурное и духовно-просветительское развитие, развитие инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В Республике Узбекистан вопросы обучения иностранным языкам нашли отражение в трудах таких исследователей, как Г.Х.Бакиева, Л.Т.Ахмедова, Ж.Ж.Жалолов, Т.К.Саттаров, И.М.Тухтасинов, М.Джусупов, Д.Р.Джуманова, Д.У.Хошимова, Д.А.Таджибаева, Ф.Ш.Алимов, Х.А.Маматкулов, У.У.Жуманазаров, К.Ш.Мурадкасымова, А.Э.Рустамова, Б.Р.Саматова, Х.И.Уразбаев, Х.А.Ахмаджанов[2].

---

[1] Совещание при Президенте Республики Узбекистан, посвящённое вопросам развития системы высшего образования, 15 мая 2025 года. https://lex.uz/uz/docs/7481758

[2] Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва.: МГЛУ, 2012.– 120 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Т.: Фан ва технология, 2013– 200с.; Jalolov J. Методика преподавания иностранного языка. – Ташкент, 2012. – 430 с.; Саттаров Т.К.

Среди отечественных ученых, проводивших научные исследования по проблемам информационной компетентности и личностно-ориентированного подхода, с теоретической и научной точек зрения были проанализированы труды А.Хамидова, И.Бобоёрова, С.Нишоновой, А.Юлдошева, К.Тухтасинова, Б.Шарипова, М.Нормуродовой, Н.Собировой, З.Каримовой, Д.Мамажоновой[3].

Среди ученых стран СНГ, осуществлявших научные исследования в рамках данной проблематики, следует отметить труды А.В.Хуторского, И.А.Зимней, Л.И.Новиковой, Н.Л.Ивановой, Н.В.Коломойцевой, С.С.Кунанбаевой, В.И.Солдаткина, В.А.Лопаткина, В.Д.Шадрикова, Ю.Г.Татура, Г.К.Селевко, В.А.Далингера[4].

